

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 9 (3) - 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 9 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;  
Тайланова Шоҳида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиги.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик  
Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:  
[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Mamajonov Rahimjon Akramovich*

“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O’RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHЛИLI ..... 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*

МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ..... 17-22

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Tursunov Bekmuhammad Om'onovich*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҶОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ..... 23-34

*Kurpajaniidi Константин Иванович*

ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ..... 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*

O’ZBEKİSTONDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHЛИLI ..... 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛЬТЕРИЯ ҲИСОБИННИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 52-62

*Rўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҶАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АҲБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ..... 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*

TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 74-80

*Davronov Istamxo’ja Olimovich*

МЕНМОНХОНА XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SIFATINI BAHOLASH USULLARI ..... 81-86

*Маматов Баҳадир Сафаралиевич*

ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ..... 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиiddин ўғли*

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТҮЛАШ ТАРТИБИ ..... 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*

МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i>	
KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	117-127
<i>Кодиров Азизжон Анварович</i>	
ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ .....	128-136
<i>Эшонқулов Акмал Кудратович</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ЖАЛЬ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	143-150
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i>	
YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI .....	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR .....	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i>	
BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI .....	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i>	
UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI .....	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i>	
СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i>	
ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI .....	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i>	
JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i>	
XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	198-202
<i>Azimov Sherzod</i>	
PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY .....	203-207
<i>Абдурахмонович Ҳасан Иброҳимович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	208-216

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Kuliyeva Dilshoda Aljon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..... 217-223

*Tешабаева Диляфузә Муминовна, Абдухалирова Гулбаҳор Карабаевна  
ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА*

ЯСАЛИШИ ..... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI..231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..... 242-246

*Vositov Otobek Toxirjonovich*TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIK  
GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..... 247-253*Нодир Раҳматуллаев*

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..... 254-260

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ХУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI  
INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 271-276**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 277-281*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH  
(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..... 282-287*Kadirov Ramz Turabovich*TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEKNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI  
MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) ..... 288-295*Khabiba Madaminovna Jurabekova*THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE  
COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..... 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i>	
KLASTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH MASALALARI .....	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI .....	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH .....	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i>	
BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI .....	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i>	
BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH .....	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI .....	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i>	
AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH .....	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i>	
EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS .....	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i>	
OLIY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALТИRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI .....	363-367
<i>Хусаинова Лейла Юнусова</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ .....	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
MATEMATIK KREATIV TAVSIFDAGI MASALALARINING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI .....	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i>	
PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI .....	380-384

*Eshnazarov Murod Karimovich*

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI ..... 385-391

**Axmedova Shaxodat Maxmutovna**

Termiz davlat universiteti,  
“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasи o‘qituvchisi  
[shaxodat@bk.ru](mailto:shaxodat@bk.ru)

### **O’ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning turli sohalarida keng qo’llanilib kelayotgan konsept tushuncha tadqiq markazi bo‘lib, konseptual tizim, konseptosfera va shifo konseptining konseptual tizim asosida shakllangan mikro konseptlari ko‘rsatilib, ushbu konseptlarning xalq paremalarida ifodalanishi faktik misollar bilan tahvilga tortilgan.

**Kalit so’zlar:** konsept, paremiologiya, maqol, shifo leksemasi, davo leksemasi.

---

**Axmedova Shaxodat Maxmutovna**

Teacher of the department of English Language and Literature,  
Termez State University

### **EXPRESSION OF THE CONCEPT OF "HEALING" IN UZBEK PEOPLE'S PAREMAS**

**Abstract.** This article analysis of the concept, which is widely used in various fields of modern linguistics, is the center of concept research, the micro-concepts of the conceptual system, conceptosphere, and healing concept formed on the basis of the conceptual system are shown, and the expression of these concepts in folk songs is analyzed with factual examples.

**Key words:** concept, paremiology, proverb, healing lexicon, treatment lexeme.

---

**Ахмедова Шаходат Махмутовна**

Преподаватель кафедры Английского языка и литературы,  
Термезский государственный университет

### **ВЫРАЖЕНИЕ ПОНЯТИЯ «ВЫЗДОРОВЛЕНИЕ» В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПАРЕМАХ**

**Аннотация.** В данной статье концепт, который широко используется в различных областях современного языкознания, находится в центре исследования концептов, показаны микроконцепты понятийной системы, концептосферы, целительского концепта, сформированные на основе понятийной системы, и на фактических примерах анализируется выражение этих понятий в народных песнях.

**Ключевые слова:** концепт, паремиология, пословица, лечебная лексика, лечебная лексема.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N30>

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda kuzatishlar olib borish asosiy masalalardan biriga aylandi. Dunyo tilshunosligining lingvo pragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik,

psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rghanish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog'liqdir.

Ko'plab sohalardagi kabi so'nggi yillarda "konsept" atamasi tilshunoslik sohalarida tez-tez takrorlanib, ko'plab lingistik birliklar bilan birga qo'llangan holatda ko'plab ilmiy ishlar qilinayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Hozirgi kunda "konsept" atamasi tilshunoslikning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. U tilshunoslikning kognitiv, semantik va lingvokulturologiya sohalariga kirib keldi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Konsept so'zi lotin tilida "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "tushuncha" demakdir. Konsept atamasi XX asrning 90-yillarida fanda keng qo'llanila boshlandi. D.S.Xudoyberganova konsept – mavhum tushuncha deb, uni bevosita kuzatish mumkin emas deb hisoblaydi [11; B.81.]. D.A.Tosheva esa keyingi davrlarda o'zbek tilshunosligida semantik aloqadorlikni hosil qiluvchi birliklarni konsept asosida tadqiq etish keng yoyilganini qayd etgan. Umuman, lingvokulturologik tadqiqotlarda konseptning ifodalanish muammolariga katta e'tibor berilmoqda. O'tgan davrdagi ilmiy tadqiqotlarning ko'p qismida u yoki bu tilda konsept bilan bog'lik masalalar tahlil qilingan. Jumladan, Ye.Yu.Balashova "muhabbat" va "nafrat" konseptining til birliklarda namoyon bo'lish holatlarini o'rgangan [12; B.262.]. Dissertatsiya ishi rus va ingliz tili manbalari asosida amalga oshirilgan. Ishda "konsept"ning shakllanish tamoyillari, lisoniy-madaniy tadqiqot usulida milliy kognitiv dunyo manzarasi, "konsept"ni anglashning psixolingvistik metodlari, konseptning zamonaviy talqini kabi nazariy qarashlarga oydinlik kiritilgan. "Muhabbat" va "nafrat" tushunchalari psixolingvistik tajriba asosida o'rganilib, kognitiv va semantik jihatdan tahlil qilingan. Har ikki tilda mavjud birliklar chog'ishtirilib, ulardagi individual va universal semalar aniqlangan. M.Jonson, J.Lakofflar fanda tilning aynan konseptlar ko'lami olam lisoniy manzarasining xossalari ochib beradi: konseptlar – jamoaviy ongdagi ko'p mezonli ma'noviy shakllanishlar bo'lib, o'zining lisoniy qobig'iga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Sh.S.Safarovning "Kognitiv tilshunoslik" nomli risolasida predmet -hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurida obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo'ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi konseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi deydi.

N.M.Maxmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday deydi "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda ekanligini, so'nggi yillardagi nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlanganligini inobatga olib konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik deb hisoblaydi".

A.G.Yuldashevning "Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv tadqiqi" nomli monografiyasida hozirgi zamon tilshunosligida konsept tabiatini o'rganishda ikkita yondashuv e'tirof etilgan. Ularning biri kognitiv izohga asoslanib, unda insonning bilimi va tajribasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Ikkinchisi esa lingvokulturologik birlik sifatida.

D.U.Ashurova va M.R.Galiyevalarning "Cognitive Linguistics" [Kognitiv lingvistika] nomli o'quv qo'llanmasida ham konsept tabiatini o'rganishda kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar e'tirof etilgan. Biz tadqiqotimizda "konsept" terminini lingvokulturologiyaga oid mazmunda qo'lladik. Inson borliqdagi narsa va hodisalarni asosan til orqali idrok etadi,


xotirasida saqdaydi va har bir inson o'z konseptual tizimiga ega bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi xodimining konseptual tizimidan yerga qayta ishlov berish, ekin ekish, uni sug'orish, parvarishlash til birlklari o'rinn oladi; o'qituvchida dars, me'yoriy hujjatlar, jurnal, dars rejasi va dars jadvali, reyting daftarchasi kabilar konseptual tizimni hosil qiladi. Xar ikki ijtimoiy qatlam vakillarining konseptual tizimi bir-biridan tubdan farq qiladi. Olamni bilish jarayonida, ya'ni uni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishda baho munosabati muhim o'rinn tutadi [2; B.107].

N.N.Boldirevning ta'biri bilan aytganda, bu jarayonda egallangan bilimlar interpretatsiyasi, ikkilamchi konseptuallashtirish hamda munosabat, baho ifodalash, qadriyatlar, stereotiplar kabi boshqa tizimlar doirasidagi ikkilamchi kategoriyalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Yana bir tadqiqotchi N.Kryuchkova ishida ham konseptga alohida e'tibor qaratgan. Uning "Концепты возраста (на материале русского и французского языков)" nomli dissertatsiyasida parema va aforizmlar tahlili konseptni yorituvchi metodlar qatorida keltirilgan. Bundan ko'rish mumkinki, maqollarni konsept jihatidan tahlil etish barqaror birikmalarda ifodalangan xalq qarashlari, qadriyatlarini o'rganishda ahamiyatlidir. Bizningcha, xalq maqollarini ma'lum konseptlarga ajratib tadqiq qilish orqali o'sha xalqning maqollaridan tilida namoyon bo'ladigan lingvomadaniyatini kichik bo'g'inlarini ham ochib berish imkoniyati keng bo'ladi.

Bizga ma'lumki, insonning olamni idrok etishi jarayonida voqelikning qayta anglanishi natijasida individning konseptosferasida yangi murakkab kognitiv jarayonlar amalga oshadi. Bu jarayonlar konseptual derivatsiya maqomini oladi. Konseptual derivatsiya aniq konseptlar o'rtasida aloqa mavjud ekanligini nazarda tutgan holda asosiy konsept va uning asosida paydo bo'lgan konseptlarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Bizning tadqiqotimiz obyekti bo'lgan shifo konsepti asosida quyidagi konseptlar shakllandi. Shuningdek ushbu konseptlar asosida shakllangan o'zbek xalq paremalirini tahlilga tortdik. Mazkur maqolada analiz, sintez, taqqoslash kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

**Muhokama.** Shifo konsepti asosida quyidagi konseptlar shakllandi. Shuningdek ushbu konseptlar asosida shakllangan o'zbek xalq paremalirini tahlilga tortdik.



**Qarang. 1-rasm. Shifo konseptining konseptual tizimi**

Ushbu konseptual tizim asosida shakllangan konseptlar ishtirok etgan paremiologik birliklar tahliliga e'tiborimizni qaratsak, Masalan, Kasal bitta — davosi mingta –ushbu maqolda bir kasallikning turli davolari borligi aytilgan. Abu Bakr Roziy ham bir kasallikning davosi mijozga qarab o'zgarib boradi, kimningdir mijoz qabul qiladigan davo boshqa mijozga teskari ta'sir qilishi mumkin, deydi. Kasalni tabib emas, habib tuzatar –Habib-sevikli do'st, o'rtoq demakdir. Haqiqatdan ham haqiqiy do'sting sizga bo'lgan mehri, uning daldasi shifokorlarning ming uringan mashaqqatlari bilan tengdir, ushbu maqolda bemorni nafaqat tabib, balki uni yelkadosh do'stining mehri ham yostiqdan bosh ko'tarishiga yordam berishi bayon etilgan.

Pokliging – sog'liging– Xalqimiz orasida keng tarqalgan ushbu salomatlik bilan bog'liq maqolda olam-olam ma'no bor. Toza tana, toza iymon, toza fikr eng katta salomatlidir, bu muqaddas kitobimiz hisoblangan Qur'oni Karimda ham bayon etilgan va hadislarda ham inson salomatligining eng boshida tozalik, poklik turishi bayon etilgan. Bu maqolga mos keladigan quyidagi maqol ham ham xalqimizning ijod namunasidir: Uyi tozaga gard yuqmas, Gard yuqsa ham, dard yuqmas. Quturganning kuni – qirq.

**Natijalar.** Shuni ta'kidlash joizki, xalqimiz orasida "qirq" soni "sehrli son" ekanligi barchamizga ayon, ya'ni shu qirq soni bilan bog'liq ko'plab maqollar (Qing'ir ishning qiyig'i qirq kunda ham chiqadi. Qing'ir odam bir tomon, qirq odam – bir...), magiyalar (qirq kecha-yu qirq kunduz...), urf-odatlarimiz, marosimlarimiz (chilla) va albatta ayrim kasalliklarning davosi ham bordir, shular jumlasidan qutur kasalligi.

Boylikning boshi – sog'liq-hozirgi kunga qadar dolzarb hisoblangan ushbu maqolda insonning eng katta boyligi bu uning sog'ligi ekanligi aytilgan. Shu o'rinda buyuk Iskandar Zulqarnaynning vasiyatini eslaylik.

Isitmani yashirsang, O'lim oshkor qilar. Yashirin ishning isi albatta oshkor bo'ladi, ya'ni kasallikni yashirsang ham u o'zini namoyon etadi. Bu maqolning invariant shakli ham mavjud:

*Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor etadi.*

*Kalla osgan kuni itdan,*

*Kir yuvgan kuni bitdan qutulasan .*

Xalq hayotiy tajribasi, momolarimiz mehnat faoliyati aks etgan ushbu parema, xalqonaligi bilan ajralib turadi. Sharq xalqlariga xos bo'lgan, momolarimiz tayyorlagan milliy ovqatlarimizdan biri kalla, tuyoq qaynatish ko'plab kasalliklar uchun shifodir. Kalla qozonda osilgan kunda nafaqat oila a'zolar balki, hovlidagi it ham to'yadi, ya'ni ko'p suyakka ega bo'lgan it "irillamay" qo'yadi; pokliging –sog'liging deyilganidek, kir yuvilgan kunda ko'plab ko'rpato'shaklar yuviladi va ular ko'plab chang, dog'lar bilan birga har xil hasharotlardan ham tozalanadi [5; B.89.].

Shuning uchun ham kir yuvilganda bitdan qutulasan deyilgan.

Kasal kasal emas, Kasalni boqqan kasal.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan ushbu paremada hayot haqiqati aks etgan. Kasal kishining oldidagi yaqini unga qarab, uning azoblanayotganini ko'rib, unga qandaydir yordam berolmayotganidan ham ruhiy, ham jismoniy qiynaladi, shuning uchun xalqimiz: Eng qiyini – kasalga emas, kasal boqqanga deb aytishadi.

*Kasal kulgi suymas.*

"Tabassum ham – sunnatdir" degan hadis mavjud. Ammo kulgining ham o'z o'rni bordir. Dard chekib turgan insonning oldida kulish, uning dardi ustiga chipqon bo'lishday gap, bemorning tanasi, ruhiyati kulgini suymaydi.

*Kasalga asal ham bemaza tuyular.*

Bu maqolda ilmiylik kuchli, bizga ma'lumki, eng shirasi o'tkir ne'matlardan biri asaldir. "Qonun"da: Ming bir dardga davo asaldir, deb aytilgan. Yana shuni ham aytish joizki, kasalliklarning eng birinchi belgisi og'izning taxirlashuvidir, ya'ni har qanday shirin, mazali narsa ham bemaza yoki taxir bo'lib tuyuladi.

Tahlillardan ko'rinish turibdiki, o'zbek xalqimiz yaratuvchan, u so'zdan shunday o'rini foydalanadiki, qudratli kalomning ifodasi nafaqat badiiy asarlarda o'z bo'yini namoyon etadi, balki insonning dardi, bemorligi, kasalligini ifodalovchi birliklarni ham qulqoqqa yoqimli eshitiladigan nomlar bilan ifodalaydi. Sog'lomlik, kasalliklarning davosi haqida shunday maqollar, hikmatlar, hikoyalari, frazeologik, evfemik birliklar borligini, xalqimizning yaratuvchanligi, so'zning qudrati yuqoridagi xalq paremalarida kuzatdik.

**Xulosa.** Xulosa qilib bayon qilganda, bu birliklarda xalqimiz tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari, dini aks etgan. Asrlar davomida xalq ishonch-e'tiqodi asosida yaratilib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq tabobati bilan bog'liq maqollarida davo, shifo, kasalliklarning oldini olish, salomatlik, bemorlik bilan bog'liq purma'no fikrlari qisqa, aniq, lo'nda shaklda bayon etilgan.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. A.G.Yuldashev. Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv tadqiqi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. –192 b.
2. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. O'quv qo'llanma. Cognitive Linguistics Kognitiv lingvistika. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 107 p.
3. Maxmaraimova Sh.T. Lingvokulturologiya [matn] o'quv qo'llanmasi. Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.
4. Maxmudov N.M. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. -№ 5. – B. 9.
5. O'zbek xalq maqollari /Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov – Toshkent: «Sharq», 2005. – 253 b.
6. O'zbek xalq maqollari: [2tomlik]. Mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. Tom 1. – Toshkent, «Fan», 1987. – 368 b.
7. O'zbek xalq maqollari: [2tomlik]. Mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. Tom 2. – Toshkent: Fan, 1988. – 372 b.
8. O'zbek xalq maqollari: To'plovchilar T. Mirzayev, B.Sarimsoqov, A. Musoqulov. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 512 b.
9. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: "Sangzor" nashriyoti, 2006 – 92 b.
10. Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori avtoreferat. –Toshkent, 2017. – 74 b.
11. Xudoyberanova D.S. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, Fan. 2013. – 81 b.
12. Балашова Е.Ю. Концепты любовь и ненависть в русском и американском языковых сознаниях: Дисс. канд. филол. наук. -Саратов, 2004. – 262 с
13. Болдырев Н.Н. Категориальная система языка/ Категоризация мира в языке/ Когнитивные исследования языка.-Москва-Тамбов, 2012. – С. 103.
14. Крючкова Н. Концепты возраста (на материале русского и французского языков). Дисс. ... канд.филол. наук. – Саратов, 2003. – 224 с.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 9 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).